

## YOSHLARNI OMMAVIY AXBOROT XURUJLARIDAN HIMoya QILISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich,

Farg'onan davlat universiteti

Tadjibayeva Qizlarxon Sadikovna,

Farg'onan davlat universiteti

[oerkaboyev@gmail.com](mailto:erkaboyev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8072687>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoga xavf solayotgan ommaviy madaniyat, unga qarshi kurashda yuksak ma'naviy-ahloqiy, pedagogik-psixologik bilimlarni shakllantirish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniy ta'lif, ommaviy madaniyat, psixologik tarbiya. Bugungi kundagi global muammolar orasida ko'zga koo'rinnmaydigan, ko'rinishidan sodda, hech ham ahamiyatga molik emasdek tuyiladigan, aslida esa inson ongini zabit qiladigan, o'zi bilmagan holda uning mafkurasiga ruhiyatiga ta'sir eta oladigan, munosabatlar tizimini, milliy qadriyatlar, milliy o'zligiga hamda madaniy tuzulmasiga zarba berib insonda o'zgacha yot qiyofani namoyon qila oladigan ayrim axborot ta'sirlari mavjud ekanligi sir emas. Bu omma madaniyati sifatida taqdim etilayotgan holatlar psixologlar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar hamda faylasuflar tomonidan qoo'shtirnoq ichidagi ommaviy madaniyat – deb nomlanmoqda. Basharti ayrim buzg'unchi siyosiy kuchlar va ayrim davlatlar o'zlarini qiziqtirayotgan davlatlardagi sog'lom ijtimoiy ongni buzish maqsadida tajovuzkor madaniy siyosatni o'tkazishdan uyalishmas ekan, bunday hadisalarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun biz zudlik bilan shaxslarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz maqsadga muvofikdir. Hayot axloqiy va estetik afzalliklar, histuyg'ular, o'zini qaror toptirishga, nufuzli maqomga ega bo'lishga urinishlar o'zining ular bilan qardoshligini his etish, o'z mushtarakligi boshqalar tomonidan himoyalanganligi tuyg'usi va shu kabilar bilan tartibga solinadi. Bularning barini insonning qadriyat yo'nalishlari deb atash qabul qilingan (bu yerda faqat ijtimoiy qadriyatlar sanab o'tilgan, lekin insonda ijtimoiy sabablarga bevosita bog'liq bo'lмаган ko'plab manfaatlar ham bo'lishi mumkin). Ushbu qadriyat qoidalari insonning turmush tarziga qo'shib, uning ham olam manzarasini, kishilarning hayoti va jamoaviy borlig'i, ushbu borliq qonuniyatlari va normalari, tarkibining qadriyatlar iyerarxiyasining mohiyati haqidagi qisman ratsional (ishonchli bilimga asoslangan), biroq ko'proq intuitiv (mental, obrazli, axborotfragmentlar va boshqalar) tasavvurlar hamda tuyg'ularni shakllantiradi. Shaxs ekstrautilitar manfaatlari hamda ehtiyojlarning ushbu darajasida madaniyat uning ijtimoiy monandligini tartibga soluvchi asosiy omil bo'ladi. Chinakam xavfsiz jamiyat odamlarning mutlaq ko'pchiligi hayot faoliyatining umum qabul qilingan normalariga ongli va maqsadli rioya qiladigan, ya'ni madaniyatli bo'lgan, qonunbuzarlar soni esa ancha kam bo'lgan jamiyat. Qonunbuzarlar soni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadan osha boshlasa, bunday jamiyatga madaniyatli deb ham, xavfsiz deb ham atash qiyin. Shu ma'noda arxaik an'anaviy jamiyatlar, marginallashgan aholi foizi ancha yuqori va xavfsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hamda umum qabul qilingan andazalari foizi past bo'lgan industrial hamda postindustrial jamiyatlarga qaraganda, albatta, ancha xavfsizroq va ularning ko'pchilik a'zolarining xatti-harakatini oldindan bilsa bo'ladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun madaniyatning barcha tarmoqlari: ta'lif, san'at, din, fan, ommaviy axborot vositalari,

nashriyotlar, madaniy muassasalar, muzeylar, kutubxonalar, uyuşhtirilgan bo'sh vaqt va shu kabilarning kuch-g'ayratini jamiyatning o'zini o'zi ijtimoiymadaniy rivojlantirishi va saqlab qolishi borasidagi umumiy davlat dasturi doirasida birlashtirish talab etiladi. Shu tariqa, mafkuraviy tajovuzga qarshi kurash masalasini hal qilish ishiga butun davlat siyasi, shu jumladan insonni ijtimoiylashtirish hamda uning ichki madaniyatini rivojlantirish bo'yicha barcha institatlarning kuch-go'ayratini muvofiqlashtiruvchi madaniy siyosat ham jalb etilishi darkor. Markaziy Osiyo hududida vaqtincha mafkuraviy boo'shliq yuzaga kelganidan foydalanib qolishga intilayotgan kuchlar borligi bahs talab qilmaydigan faktadir. Bunday buzgo'unchi kuchlar manfaati ayon va tushunarlidir. Ularning Markaziy Osiyo hamda O'zbekistonda jiddiy qiziqish bilan qarashning asosiy sabablari avvalgi bobda batafsil ko'rib chiqildi. Bu qiziqish, avvalo, mamlakatimiz tabiiy zaxiralarga boyligi, geosiyosiy nuqtai nazaridan juda qulay hududda joylashganligi tufayli yuzaga kelgan. Shu bois ayrim mafkura markazlarining xalqimiz ongiga mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini singdirishga, keyinchalik ularning yordamida ustimizdan hukm yuritishga intilish mutlaqo tushunarlidir. Ushbu kuchlar bugungi kunda o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan hazar qilmasligi, ular garchi katta mablago' va zamонавиу qurol aslahaga ega bo'lishsada, asosiy hamda ta'sirchan quroli, baribir, bizning milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, shuning uchun erta-bir kun o'rнимизни bosishi lozim bo'lган yoshlarning qalbi va ongini zaharlaydigan vayronkor mafkura ekanligi ayon bo'lib qoldi. Masalan, g'oyalari yoshlarning muayyan qismi tomonidan kutilmaganda qabul qilingan diniy ekstrimizm tahdidini olaylik. Bu hodisa yoshlarimiz ekstrimizmga moyil bo'lgani uchun emas, balki ularning ongi chetdan bo'ladigan mafkuraviy tazyiqqa qarshi kurashish uchun mamlakatda aniq o'ylab chiqilgan biron-bir dastur bo'lмаган, yosh avlod yo'l qo'yilgan xatolardan qutilib qolishida ko'maklashadigan bunday dasturga ega bo'lish zarurati aylanmagan mafkuraviy bo'shliq sharoitida shakllangani uchun sodir boo'ldi. Darhaqiqat hech qanday bo'shliqqa, ayniqsa mafkura sohasidagi bo'shliqqa yo'l qo'yib boo'lmaydi. Tabiat bo'shliqni yoqtirmaydi - degandi amerikalik mashhur mutafakkir Jorj Bernand Shou Kishilar haqiqatni bilmaydigan joyda ular bo'shliqni uydirma bilan too'ldirishadi. Shu sababli ham yangi davlatlar mustaqillikning dastlabki, eng beqaror bosqichida milliy xavfsizlik, barqarorlik va mafkuraviy himoyalanganlik nuqtai nazaridan juda nochor bo'lib qolishgan. Mafkura sohasida boo'shliqqa yoo'l qo'yib bo'lmasligini endi jamiyatimiz a'zolarining ko'pchiligi anglab oldi. Biroq SSSR parchalangach hosil bo'lган mafkuraviy bo'shliq Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning uncha katta boo'lмаган tarixi davomida juda hilmi hil g'oyalalar hamda oqimlar bilan too'ldirila boshlangandi. Zo'r mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan milliy ozodlik qadriyatlarini saqlab qolish uchun butun diqqat-e'tibor iqtisodiyot va boshqaruvning dolzarb muammolariga qaratilgan bir davrda uzoq muddatli davlat mafkurasi yoki milliy go'ya haqida o'ylashga ko'pchilikning imkoniyati bo'lмаганди. Biroq bugunga kelib, mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishi va ushbu boo'shliqning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bizning orzu-umidlarimiz hamda intilishlarimizga mutlaqo zid bo'lган yot g'oyalalar kommunistik mafkura tugatilganidan so'ng bo'shab qolgan mafkuraviy makonni egallashga olib kelishi butkul ma'lum bo'lib qoldi. Markaziy Osiyo hududida vaqtincha mafkuraviy bo'shliq yuzaga kelganidan foydalanib qolishga intilayotgan kuchlar borligi bahs talab qilmaydigan faktadir. Bunday buzgo'unchi kuchlar manfaati ayon va tushunarlidir. Ularning Markaziy Osiyo hamda O'zbekistonda jiddiy qiziqish bilan qarashning asosiy sabablari avvalgi bobda batafsil ko'rib chiqildi. Bu qiziqish, avvalo, mamlakatimiz tabiiy

zaxiralarga boyligi, geosiyosiy nuqtai nazardan juda qulay hududda joylashganligi tufayli yuzaga kelgan. Shu bois ayrim mafkura markazlarining xalqimiz ongiga mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini singdirishga, keyinchalik ularning yordamida ustimizdan hukm yuritishga intilish mutlaqo tushunarlidir. Ushbu kuchlar bugungi kunda o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan hazar qilmasligi, ular garchi katta mablag' va zamonaviy qurol aslahaga ega bo'lishsada, asosiy hamda ta'sirchan quroli, baribir, bizning milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, shuning uchun erta bir kun o'rnimizni bosishi lozim bo'lgan yoshlarning qalbi va ongini zaharlaydigan vayronkor mafkura ekanligi ayon bo'lib qoldi. Masalan, go'yalari yoshlarning muayyan qismi tomonidan kutilmaganda qabul qilingan diniy ekstrimizm tahdidini olaylik. Bu hodisa yoshlarimiz ekstrimizmga moyil bo'lgani uchun emas, balki ularning ongi chetdan boo'ladijan mafkuraviy tazyiqqa qarshi kurashish uchun mamlakatda aniq o'ylab chiqilgan biron bir dastur bo'lмаган, yosh avlod yo'l qo'yilgan xatolardan qutilib qolishida ko'maklashadigan bunday dasturga ega bo'lish zarurati aylanmagan mafkuraviy bo'shliq sharoitida shakllangani uchun sodir bo'ldi. Shunday qilib, mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy rivojlanishining hozirgi bosqichda o'z mafkurasini shakllantirish zarurati hammaga ayon boo'lib qoldi. Chunki har qanday kasalning oldini olish uchun, eng avvalo, inson organizmida ushbu kasallikka qarshi immunitet hosil qilish kerak. Shu bois xavfsizligimizga jiddiy tahdidlar yuzaga kelgan bugungi kunda butun diqqat-e'tiborimizni jamiyatimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratishimiz lozim.

### References:

1. S Uraimov. The interrelation of the block-modular system of motor fitness of young men in the lessons of pre-conscription military education and physical culture. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka 1 (1) 51 2021
2. O Erkaboyev, D Tursunova. Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish. PEDAGOG 28 2023
3. EO Muhammadjonovich. O'SMIRLARNI ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI. Ta'lim fidoyilari 4, 73-79 28 2022
4. OM Эркабоев. Жисмоний тарбия ва Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари. Ta'lim fidoyilari 13, 4-8 24 2022
5. OM Эркабоев, Э Джораев. Наука в системе высших школ республики Узбекистан Архивариус 1 (2 (17)), 24-27 24 2017
6. EO Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 2 (1.5 ... 10 2022
7. OM Эркабоев. Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке Ta'lim fidoyilari 2, 70-74 4. 2022
8. OM Erkaboyev, OT G'aniyev. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING "OMMAVIY MADANIYAT" TAHDIDIGA QARSHI KURASHI. INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE ... 2. 2022
9. OM Erkaboyev, IA Mamatqulov. MA'NAVIY TAHDID-YOSH AVLOD KELAJAGIGA TAHDID

INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE ... 2. 2022

10. EO Muxammadjonovich, MG Qosimjonovna. TALABA-YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ZAMONAVIY USLUBLAR MAZMUNI  
ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 21 (7), 149-151 2023
11. EO Muxammadjonovich, AM Ismoilovna. TALABALARGA MUTAXASSIS FANLARINI O 'QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK EXNOLOGIYALARNI QO 'LLASH  
ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 21 (7), 144-146 2023
12. EO Muxammadjonovich, AE Maxamatshukurovna. MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY VAZIFALARI  
ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 21 (7), 147-148 2023
13. EO Muxammadjonovich, ME Abdujannonovich YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RNI. Tadqiqotlar, 11(2), 40-43. Retrieved from. 2023
14. EO Muxammadjonovich, QG Maxsitaliyevna. ICHKILIKBOZLIK, KASHANDALIK VA GIYOHVANDLIK YOSHLARNING AQLIY VA JISMONIY KAMOLOTI KUSHANDASI. PEDAGOG 6 (2), 62-63 2023
15. EO Muxammadjonovich, TD Numanovna. AQLIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARIDAN FOYDALANISH. PEDAGOG 6 (2), 59-61 2023
16. EO Muxammadjonovich. SPORT VA HARAKATLI O'YINLARNI O'QITISH METODIKASI. 2023
17. EO Muxammadjonovich. Жисмоний тарбия ва чақиравгага қадар бошланғич тайёргарлик воситаларини интеграциясини юқори синф ўқувчиларини ҳарбий хизмат қилишга тайёрлаш натижалариға таъсири  
Муғаллим ҳәм үзликсиз билимленидиў 4 (1), 149-154 2022
18. Erkaboyev Oybek. EXPERIMENTAL SUBSTANTIATION OF INTEGRATION MEANS OF PHYSICAL CULTURE AND PRE-CONSCRIPTION MILITARY EDUCATION IN THE PREPARATION OF PRE-CONSCRIPTION YOUTH FOR SERVICE IN THE ... Jurnal of exercise physiology 7 (7), 6 2022
19. O. Эркабоев. Содержание основных понятий интеграции в отечественной педагогике. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимленидиў 5 (5), 99-102 2022
20. EO Muxammadjonovich. ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYANING IJTIMOIY MOHIYATI. Ta'lim fidoyilar 3, 138-141 2022
21. Эркабоев Ойбек. ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА ФУҚАРО МУҲОФАЗАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДАГИ ИЛГОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР FarDU. ILMIY XABARLAR 6, 165-168